

**Shaxlo XALILOVA,**  
**Qarshi davlat universiteti**  
**Lingvistika kafedrasi katta o'qituvchisi**  
**E-mail: shakhlo.khalilova.1979@gmail.ru**

*PhD A.Murtazayev taqrizi asosida*

## **O'ZBEK VA INGLIZ XALQ ERTAK QAHRAMONLARINING O'XSHASH XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya

Xalq ertaklarining eng qiziqarli va ajoyiblari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bu kabi ertaklar xalq madaniyati, urf-odatlari va tarixining bir qismiga aylangan. O'zbek va ingлиз ertaklarining umumiyligi o'xshashliklari va ulardagagi umumiyligi farq bo'lishi mumkinligi ko'plab ertaklarda aks ettiriladi. Odatda ertaklarda muhabbat, nafrat, mardlik, mehr-oqibat, shafqatsizlik kabi umuminsoniy tuyg'ularni uchratish mumkin. Bolalar ertaklarni o'qishlari orqali uni yaxshi tushunishlari va o'rganishlari kerak, shunda ular milliy adabiyotni, shuningdek, butun mamlakat madaniyatini chucherroq anglay oladilar.

**Kalit so'zlar:** ertak, yovuz xarakter, ijobiy xarakter, qirollik, umumiyligi his-tuyg'u, janr, g'ayrioddiiy

## **COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH FAIRY TALES**

Annotation

The most interesting and wonderful folk tales are passed down from generation to generation. Such tales have become part of the nations' culture, customs and history. The common similarities and differences of Uzbek and English tales are reflected in many fairy tales. Fairy tales often contain common feelings such as love, hate, courage, compassion and cruelty. Children need to understand and learn fairy tales so that they can better realize the national literature as well as the culture of the whole country.

**Key words:** fairy tale, evil character, positive character, royal, general feeling, genre, extraordinary

## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ СКАЗОК**

Аннотация

Самые интересные и замечательные народные сказки передаются из поколения в поколение. Такие сказки стали частью культуры, обычая и истории народов. Во многих узбекских и английских сказок имеют общее сходство и различия. Сказки часто содержат универсальные чувства, такие как любовь, ненависть, мужество, сострадание и жестокость. Детям необходимо понимать и учить сказки, чтобы лучше узнать национальную литературу, а также культуру всей страны.

**Ключевые слова:** сказка, злой персонаж, положительный персонаж, царственный, общее настроение, жанр, необыкновенный

**Kirish.** Ma'lumki, xalqning donoligi, ma'naviyati millatning an'ana va urf-odatlarida, ayniqsa, xalq og'zaki ijodida namoyon bo'ladi. Folklor bolalar adabiyotining eng sirli va g'ayrioddiiy janri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining eng mashhur janrlaridan biri esa ertakdir. Unda hayajonli syujet, jasur qahramonlar va o'quvchilarni o'ziga tortadigan baxtli yakun bor. Xalq ertaklarining eng qiziqarli va ajoyiblari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bu kabi ertaklar xalq madaniyati, urf-odatlari va tarixining bir qismiga aylangan. Ko'plab yosh avlodlar ana shu ulug'vor va ajoyib ertaklar orqali tarbiyalanib kelmoqdalar. Barcha bolalar ertaklarni yaxshi ko'rishadi. Ota-onalarimiz, bobo-buvilarimiz bizga ertak aytib berishar ekan, ona tilimizning milliy hikmatini, go'zalligini ko'rsatishga harakat qilishadi. Biz ingliz xalq ertaklarini o'qir ekanmiz, ularda qandaydir o'xshashlik borligini payqashimiz mumkin. O'zbek va ingliz tili ertaklarining umumiyligi jihatlari va yoki ularda qanday umumiyligi farq bo'lishi mumkinligi ko'plab ertaklarda aks etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Hozirgi kunda ertaklar folklorning alohida bir turi sifatida o'rganilib kelayotganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa bizga boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlarini, milliy ramzlarini va e'tiqodlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Agar biz o'zbek va ingliz xalq ertaklarini qiyosiy tadqiq qilsak, ertaklarning o'xshash tomonlari borligini isbotlashimiz mumkin, shu bilan birga ular xalq taraqqiyotining madaniy va tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum farqlarga ham ega ekanligi namoyon bo'ladi. O'zbek va ingliz xalq ertaklarini qiyosiy o'rganar ekanmiz, biz o'z oldimizga qo'yidagicha maqsad qo'yishimiz mumkin:

- o'zbek va ingliz madaniyatida mos keluvchi ertaklarni aniqlash;
- ertak turlari bilan tanishish;
- o'zbek va ingliz ertaklaridagi farq va o'xshashliklarni aniqlash.

O'zbek va ingliz ertaklari bo'yicha tadqiqot va tahlillar olib borish mobaynida kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish kabi usullaridan foydalanamiz va o'z oldimizga ikki til madaniyatining folkloridagi o'xshashlik va farqlarni o'rganishni muhim masala qilib olamiz.

Ertaklar - og'zaki an'analar asosida yaratilgan hikoyalardir. Ularning syujetlari sehr-jodu va baxt-saodat hamda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kuchli to'qnashuvlarni ko'rsatadi va ko'pincha baxtli yakun topadi. Odatda ertaklarda muhabbat, nafrat, mardlik, mehr-oqibat, shafqatsizlik kabi umuminsoniy tuyg'ularni uchratish mumkin. Bolalar ertaklarni o'qishlari orqali uni yaxshi tushunishlari va diqqat bilan o'rganishlari kerak, shunda ular milliy adabiyotni, shuningdek, butun mamlakat madaniyatini chucherroq anglay oladilar. Xalq ertaklarida millatning hayoti, tarixi, e'tiqodi, mentaliteti aks etadi va ularda xalq taraqqiyotining turli bosqichlari ma'lum bir tarzda aks ettirilgan bo'ladi. Ertak elementlari parilar, elflar, devlar va suv parilari va boshqa bir qancha shu kabi fantastik qahramonlarni o'z ichiga oladi. Ertaklarning juda muhim tonomi shundaki, ular odatda bizga qaysidir ma'noda saboq beradi. Ayrim mashhur ertaklardan, Sinderella, Sohibjamol va mahluq, Kichik suv parisi va Alovuddin kabi qahramonlarni bilishingiz mumkin.

Hikoya bilan ertak farqini ajratishimiz uchun elementlarning kamida bir nechta ertakda bo'lishi kerak.

Elementlar quyidagilardir:

1) Maxsus boshlovchi va/yoki yakunlovchi so'zlar: Ertaklarning asosiy elementlaridan biri shundaki, ular ko'pincha "bir paytlar", "qadim-qadim zamonlarda kabi maxsus so'zlar bilan boshlanib, "ular baxtli-saodatli yashaganlar", deb tugaydi. Ushbu so'zlarni o'qiganingizda, hikoyaning ertakdan ajratuvchi farqi borligini bilasiz.

2) Ijobiy xarakter: Ertaklarda har doim hech bo'limganda bitta ijobiy qahramon yoki shaxs bo'ladi.

3) Yovuz xarakter: Yomon xarakterga misol - Hansel va Greteldagi yovuz jodugar. Oxir-oqibat, yovuz xarakter odatda qandaydir tarzda g'oyib bo'ladi.

4) Qirollik: Ko'pincha qahramonlardan biri qirollikka xos bo'lib, bu qirol, shahzoda yoki malika bo'lishi mumkin.

5) Joy: Ertakning yana bir elementi shundan iboratki, voqeа ko'pincha qasrda, о'rmonda yoki shaharda sodir bo'ladi. Bu voqeа sodir bo'ladigan joy yoki manzil deyiladi. Masalan, Zumrad va Qimmatda voqeа о'rmonda, Sinderellada esa voqeaning bir qismi shahzoda qasrida sodir bo'ladi.

6) Sehrli narsalar: Sehr-jodu ko'pincha ertaklarning asosiy elementi hisoblanadi. Biz ertaklarda pari, mahluq, sehrli qudratga ega lilliputlarni, sehrgarlar va boshqa afsonaviy obrazlarni ko'rishimiz mumkin.

7) Muammo (tugun): Ertakning eng muhim elementlaridan biri shundaki, ularda doimo hal qilinishi kerak bo'lgan muammo bo'ladi. Misol uchun, "Malika va no'xat" ertagida shahzoda uylanishi uchun haqiqiy malika topishi kerak. Uning onasi, malika shaxzdadaning yotog'iga no'xat qo'yib, haqiqiy malika topishi kerakligiga ishora qiladi.

8) Raqamlar: Ko'pincha biz narsalar, iboralar va topshiriqlarni "uch", "olti martalik" va yoki "etti" raqamlarida aks etishini ko'ramiz.

9) Turli ko'rinslardagi haqiqatlari: Ertak, ba'zan, ayrim haqiqiy hodisalarini (ya'ni, balog'atga yetdi) yoki umid qilishni (ya'ni, yetarlicha oziq-ovqatga, sevgi-muhabbatga ega bo'lish) ifodalashi mumkin.

Bolalar ertaklarda uchratishlari mumkin bo'lgan umumiy motivlar ham mavjud bo'lib, ular:

- Gapiruvchi hayvonlar / narsalar
- So'z o'yinlari
- Sayohatchilarning ertaklari
- Kambag'allarning g'alabasi
- Yaxshilik va yomonlik o'tasidagi kurash
- Qo'riqchilar
- Sehrli so'zlar yoki iboralar / iboralarni takrorlanishi
- Kalitlar
- Insonning zaif tomonlarini ko'rsatish (ochko'zlik, dangasalik, egalik)
- Insonning kuchli tomonlarini ulug'lanishi (mehribonlik, saxiylik, sabr-toqat)
- Bajarish mumkin bo'limgan vazifalar
- umumiy xulosa, saboqlar o'rganilishi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ko'plab bolalar bir nechta ertaklarni yoddan bilishadi. Ertaklarni bir necha turlarga bo'lish mumkin. Ertaklar odatda an'anaviy tarzda og'zaki ravishda aytib beriladi yoki kitoblardan o'qiladi, shuningdek ko'p ertaklar telefilmlar yoki multifilmrlarga moslashtirilgan bo'ladi. Ertaklarni turlarga ajratganimizda ularni qat'iy belgilaydigan qoidalar bo'lmaydi. Shuning uchun ular asosan elementlari, turlari yoki motivlari bo'yicha tasniflanadi. Shunga ko'ra, ertaklarni qo'yidagicha turlarga ajrata olamiz:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar: Ko'p sonli ertaklarda hayvonlar tasvirlanadi. Ushbu ertaklarning aksariyati juda qadimgi ertaklar bo'lib, ularni xalq ertaklari deb atash mumkin. Ushbu ertaklardagi hayvonlar ko'pincha odamlar kabi gapirishlari va harakat qilishlari mumkin. Ular odamlarni oddiy, axloqiy va ruhiy tomonlarini ko'rsatish uchun ishlatalidi, chunki hayvonlar mavhum g'oyalar ko'rinishi sifatida keladi. "Mushuk va sichqoncha birgalikda", "Billi va echkilar Gruff" kabi ertaklar va Ezopning ayrim ertaklari ushbu toifa ertaklarga misol bo'ladi.

2. Sehrli ertaklar: Ertaklarda aks ettirilgan asosiy motivlardan biri sehr-jodudir. Ko'pgina ertaklarda shunday fantastik elementlar mavjud bo'lib, bunda ertaklardagi voqeа markazi sehrli elementlarga qaratilgan bo'ladi. "Rumpelstiltskin" va "Malika va qurbaqa" kabi mashhur ertaklarda sehrli afsunlar va g'ayritabiyl elementlar aks etadi. Ba'zi hollarda sehrli qudrat orqali ozodlikdan mahrum qilinadi, boshqalarida esa sehr ertakni qiziqtiruvchi element kabi ko'rinati.

3. Monster ertaklari: Yirtqich hayvonlar haqidagi ertaklarda bosh qahramon qandaydir arvoх, odamxo'r maxluq, jodugar yoki mahluqqa duch keladi. Bunday yirtqich hayvonlar qahramon yengishi kerak bo'lgan qiyinchilik yoki muammoni keltirib chiqaradi. "Jek va loviya ildizi" va "Hansel va Gretel" kabi ertaklar ushbu toifadagi ertaklarga kiradi. Yirtqich hayvonlar itoatsizliklari uchun jazoga loyiq ko'rildi yoki bolalar qo'rqishi mumkin bo'lgan vahimali ifodani anglatishi mumkin.

4. Malikalar haqidagi ertaklar: Malika va boshqa qirolik a'zolari ko'plab ertaklarda uchraydi. Bunday ertaklar bir nechta telefilm va multifilmarda asosiy mavzu bo'lin kelmoqda va qahramonlar ko'pincha qirol oila a'zosiga uylanadi yoki o'zlarini qirol ekanliklarini ko'rsatadigan obraz sifatida tasvirlanadi.

O'zbek va ingлиз ertaklarining farqlari va o'xshashliklari o'rganar ekanmiz, Angliyada xalq ertaklari o'zbek xalq ertaklariga qaraganda ancha kechroq to'plangan va yozilgan. Britaniya xalq ertaklarining birinchi toplamlari 19-asr oxiriga kelib topila boshlagan. O'zbek xalq ertaklarining tipik bosh qahramonlari – Kenja botir, No'xat polvon, Egrivoy va To'g'rivoy, Cho'pon yigit, Odilshoh, Noshud bola va b. Ingлиз ertaklarining esa qahramonlari odatda har qanday o'ziga xos kasb egalari, ya'ni fermerlar, dehqonlar va savdogarlar ko'rinishida bo'ladi. Ertak qahramonlarining odatiy ismlari - Piter Simpleton, Lazy Jek kabi bo'lishi mumkin. Mashhur ertaklardan biridagi bosh qahramonlar Noshud bola va Jekni solishtiradigan bo'lsak, o'zbek ertaklarida Noshud bola ijobiyl xarakterdir. Ammo "noshud" so'zi bu so'zning bevosita ma'nosini bildirmaydi. O'zbek tilida "sodda" va "noshud" so'zlari - bir xil ma'noga ega emas, lekin ertakda bu so'zlar o'xshash ma'noda ishlatalidi. O'zbek xalq ertaklarida "noshud" so'zi o'zini g'ayrioddiy, o'ta sodda tutadigan odamni anglatadi. Noshud bolaning suratida barcha qiyinchiliklarga qaramay, baxt topa oladigan oddiy, kambag'al bola tasvirlanadi. Oyjamol bilan Kal ertagida ham podachi Kal podshoning qizi Oyjamolga uylanib, shahzodaga aylanadi va ko'p qiyinchiliklardan keyin o'z baxtini (shohlik, kelin, davlat) topadi.

Ingliz ertaklarida "noshud" so'zi kam uchraydi. Ingliz tipik ertaklarining bosh qahramoni Jek faqat ijobiy fazilatlarga ega bo'ladi. "Kornvol davlatida odilshoh Artur hukmdorlik qilar va Keyp Lend nomli joyda bir fermer bo'lib, uning Jek ismi yakkayu-yolg'iz o'g'li bor edi." Jek hozirjavob va aqliy yigit edi, "Jek - devlarning g'olibи". Jek o'zbek ertagidagi Noshud bola singari ingliz xalq ertagida ham oddiy, kambag'al bola obrazida ifodalanadi, lekin undan farqli o'laroq, Jek ingliz ertaklarida kambag'al ota-onaning o'g'li, keksa askarning o'g'li va boshqa shu kabi oddiy oila farzandi sifatida tasvirlanib keladi. U ham baxtga va o'z sevgisini topishga erishish uchun harakat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Demak, o'zbek va ingлиз xalq ertak qahramonlarining o'xshash xususiyatlari mavjud, ammol Noshud bola va Jek ikki xil mashhur belgilar bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlari orqali odamlarning xarakterini ifodalaydi. Shuni

ham ta'kidlash kerakki, o'zbek xalq ertaklarida pari, jodugar, yalmog'iz kampir, ajdaho, ko'rimsiz uy, malika, botir, semurg' qushi kabi turli xil rang-barang qahramonlarni uchratish mumkin. Ingliz xalq ertaklarida esa bosh qahramonlar devlar, parilar, jodugarlar, mitti odamchalar, elflar, suv parilar, sehrgar Merlin, qirol Artur, ritsarlar bo'ladi. O'zbek ertaklarida sehrli gilam, sehrli dasturxon (ochil dasturxon), ko'rinnmas (sehrli) qalpoqcha kabi sehrli buyumlar uchrasa, ingliz xalq ertaklarida ko'rinnmas palto, shlyapa-nerdy, etti liga etik, sehrli oltin truba haqidagi sehrli ertaklar mavjud.

Hayvonlar haqidagi o'zbek va ingliz xalq ertaklarida deyarli bir xil jonivorlar uchraydi, ya'ni bo'ri, tulki, ayiq, quyon kabi. Hayvonlar orasidan xo'roz, sichqon, mushuk va it boshqa hayvonlardan asosiy belgilari bilan ajralib turadi.

O'zbek ertaklarining qahramonlari ko'p mashaqqatlarni boshidan o'tkazadi, uzoq mamlakatlarga sayohat qiladi, bir qancha to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengib, muammolarni hal qiladi, shu bilan birga boshqalarga ham yordam beradi. O'zbek ertaklarining qahramonlari oldida odatda, yordamchilar bo'ladi. Ular doimo bir-biriga yordam beradi, doimo kimnidir qutqaradi; To'g'rivoy Egrivoya, (To'g'rivoy va Egrivoy) Zumrad va kampir bir-biriga (Zumrad va Qimmat), Vazir xo'ja sohibjamolga (Xo'ja savdogar) yordam beradi. Ingliz ertaklari qahramonlari mustaqil harakat qilishi bilan ajralib turadi. Ular odatda yolg'iz o'zi harakat qiladi va uning barcha muammolar o'zi tomonidan hal qilinadi, ba'zida kimdir unga to'g'ri yo'l tanlashida maslahat beradi. Bu ingliz madaniyatining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi, ya'ni "yakka o'zi harakat qilgan odam", mustaqil obrax ko'rinishida keladi. Misol uchun, ko'plab ertaklarning qahramoni Jek ulkan qaroqchilar va jodugarlar bilan yolg'iz kurashadi. Bosh qahramonlar dastlab boshqalarga nisbatan mehribon va ko'ngilchanlik singari axloqiy qadriyatlarni ilgari suradilar. Ko'pgina ingliz ertaklarining qahramonlari mehnatkash, halol, olijanob va jasur bo'lishadi, ularning ba'zilari haqiqiy xalq qahramonlaridir. Shuningdek, oddiy dehqonning o'g'li Jek "Ulkan devni yengan Jek sarguzashtlari" ertagi qahramoni bo'lib, u devlar bilan jangga kirishadi, ammo dastlab faqat mukofot haqida o'laydi, lekin keyin o'z xalqi ozodligi uchun haqiqiy kurashchiga aylanadi va xalqini yovuz odamlardan qutqaradi. Ingliz ertagi qahramonilar bir qancha xilma xil voqealar va fantastik sarguzashtlardan keyin o'z baxtiga va boylikka ega bo'lishadi. Ingliz ertaklarida bosh qahramon yolg'iz harakat qiladi, shuning uchun u o'z maqsadlariga erishish uchun ko'proq harakat qilishi kerak bo'ladi.

O'zbek va ingliz xalq ertaklarini o'qir ekanmiz, ularning ko'pchiligidagi umumiyligi o'xshashliklar borligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni, har ikki xalq ertaklarining syujjeti deyarli bir xil; o'zbek xalq ertaklari bilan bir qatorda ingliz xalq ertaklari ham xalq urf-odatlari va mentalitetini o'rganishga imkon beradi. O'zbek ertaklarida qahramonlar har doim hamma narsani birligida bajarib, bir-biriga yordam berishadi, kimdir doimo bir kishini falokatdan qutqaradi, ingliz ertaklarida esa, qahramon odatda yolg'iz harakat qiladi va barcha muammolarini o'zi hal qiladi. U ingliz madaniyatining qadim zamonalardan beri "o'zi yolg'iz harakat qiladigan", mustaqil inson kabi o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi.

**Xulosa va takliflar.** Umumiyligi xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek xalq ertaklarida qahramonlar deyarli bir xil vazifani bajaradilar, ular o'z xalqining tafakkurini ko'rsatadi va u o'quvchiga yetkazilib beruvchi maxsus bir til shaklida ifodalanadi.

Ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi syujetlarni solishtirsak, ular o'rtasidagi asosiy farq o'zbek xalq ertaklaridagi fantastika, voqealarning kutilmagan burilishlari, sehr va yaratilishlarga asoslanganligida ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ingliz ertaklarining syujetida kundalik hayotning ba'zi aniq voqealari haqidagi ma'lumotlar aks etadi. O'zbek xalq ertaklarida vaziyat aniq belgilanmagan. Unda faqat "Qadimda bir saltanatda, "qandaydir bir saltanatda", "bir davlatda", "bir mamlakatda", deb so'z boradi. Ingliz ertaklarida joy ko'pincha aniq nom bo'lib, haqiqatan ham Britaniya xaritasida mavjud shahar nomlari, Kornvoll, Gloucestershire, Devon, Uels, Keyp-Lendning End kabi keladi.

## ADABIYOTLAR

1. Musakulov A. "Uzbek xalk lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati". T., 1995,-pp95
2. Jacobs J. – English Fairy Tales, Germany, 1994.
3. Kerven R. – English Fairy Tales and Legends, Hong Kong, 2008.
4. [Common Similarities and Differences of Uzbek and English Fairy Tales](#)
5. KS Jalilovna European Journal of Innovation in Nonformal Education
6. 2 (1), 366-369
7. [PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION](#) S Khalilova Gospodarka i Innowacje. 28, 6-11
8. [COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH FAIRY TALES](#) KS Jalilovna IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 80-83
9. [A CASE STUDY ON VOCABULARY LEARNING THROUGH READING FAIRY TALES](#) KS Jalilovna E-Conference Globe, 5-6
10. [THE VALUE OF THE HERITAGE OF ABU ALI IBN SINA IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH EDUCATION](#) S Khalilova American Journal of Research in Humanities and Social Sciences 14, 146-151
11. [The act of performance of fairy tales and traditions of storytelling](#) S Khalilova ACADEMICIA an International Multidisciplinary research Journal, 72-75
12. [Common features between the genres of English and Uzbek folklore](#) S Khalilova Asian Journal of Multidimensional Research, 323-327